



Recreating national identity in literary translation: issues and challenges (on the example of the French and Uzbek languages)

Dildora SADRIDDINOVA¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised

form 15 August 2025

Accepted 15 September 2025

Available online

05 October 2025

Keywords:

translation,
national identity,
cultural realia,
compensation,
transposition,
equivalence,
artistic color.

ABSTRACT

This article explores the issue of recreating national identity and cultural specificity in translation. Since the second half of the 20th century, the study of literary and cultural aspects of translation has increasingly intersected with linguocultural studies, semantics, and pragmalinguistics. Scholars such as P. Newmark, L. Venuti, A. Berman, E. Nida, M. Baker, and A. Lefevere have emphasized the challenges of preserving national color and cultural nuances in translation. The paper analyzes French-Uzbek translations using J. Vinay and J. Darbelnet's methods of transposition, equivalence, and calque, along with G. Mounin's theory of compensation. The findings highlight that a translator's cultural competence plays a crucial role in conveying the authentic spirit and artistic tone of the original text.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss5-pp276-280>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Badiiy tarjimada milliy o'ziga xoslikni qayta yaratish muammolari (fransuz-o'zbek tillari misolida)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tarjima,
milliy o'ziga xoslik,
madaniy realiya,
kompensatsiya,
transpozitsiya,
ekvivalentlik,
badiiy kolorit.

Mazkur maqolada tarjimada milliy o'ziga xoslik va madaniy birliklarni qayta yaratish masalasi yoritilgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarjima jarayonida badiiy-madaniy xususiyatlarni o'rganish lingvo-madaniyatshunoslik, semantika va pragmalingvistika bilan uzviy bog'lanib bormoqda. P. Newmark, L. Venuti, A. Berman, E. Nida, M. Baker, A. Lefevere kabi olimlarning qarashlari tarjimada milliy ruhni saqlash muammosini chuqur tahlil

¹ Senior Lecturer, Department of Applied Foreign Languages, Faculty of World Languages, Namangan State University
E-mail: sadriddinovadildora@gmail.com

qiladi. Maqolada fransuz va o'zbek badiiy tarjimalarida milliy realiyalarni ifodalashda J. Vinay va J. Darbelnetning transpozitsiya, ekvivalentlik va kalka metodlari, shuningdek, G. Mounin ilgari surgan kompensatsiya usullari amaliy misollar asosida tahlil qilinadi. Xulosa sifatida tarjimonning madaniy kompetensiyasi milliy ruh va badiiy koloritni to'laqonli yetkazishda hal qiluvchi omil ekanligi ta'kidlanadi.

Проблемы воссоздания национального своеобразия в художественном переводе (на примере французского и узбекского языков)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

перевод,
национальная
самобытность,
культурная реалья,
компенсация,
транспозиция,
эквивалентность,
художественный колорит.

В данной статье рассматривается проблема воссоздания национальной самобытности и культурных реалий в переводе. Со второй половины XX века исследование художественно-культурных особенностей перевода тесно связано с лингвокультурологией, семантикой и прагмалингвистикой. Такие учёные, как П. Ньюмарк, Л. Венути, А. Берман, Э. Найда, М. Бейкер и А. Лефевр, уделяют особое внимание сохранению национального колорита в переводе. На основе примеров французско-узбекских переводов анализируются методы транспозиции, эквивалентности и кальки (Ж. Вине и Ж. Дарбельне), а также компенсационные приёмы (Г. Мунин). В заключение подчёркивается, что культурная компетенция переводчика является решающим фактором при передаче национального духа и художественного своеобразия оригинала.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarjima jarayonining badiiy va madaniy xususiyatlarini o'rganish nafaqat tilshunoslik bilan, balki lingvo-madaniyatshunoslik, semantika, pragmalingsvistika, madaniyatlararo kommunikatsiya va matnshunoslik bilan uzviy bog'lanib borayotgan murakkab ilmiy yo'nalishga aylandi. Ayniqsa, tarjimada milliy o'ziga xoslikni qayta yaratish, milliy koloritni saqlab qolish va muallif yaratgan madaniy atmosferani tarjima tilida ham tabiiy aks ettirish masalasi tarjimashunoslikning dolzarb muammolaridan biri sifatida tobora ko'proq ilmiy muhokama markaziga chiqmoqda.

P. Newmark o'zining madaniy birliklar haqidagi qarashlarida "madaniy atamalar tarjimada eng ko'p muammo tug'diruvchi birliklardir" deya ta'kidlab, bunday birliklarni tarjima qilish jarayonida kontekstual moslik, tavsifiy izoh, funksional ekvivalent va madaniy analog kabi strategiyalardan foydalanish lozimligini qayd etadi. Shu bilan birga, L. Venuti tarjima jarayonida matnning "shaffoflashtirilishi" va haddan tashqari "globalashtirilishi" milliy koloritning yo'qolishiga, muallif ovozi pasayib ketishiga sabab bo'lishi mumkinligidan ogohlantiradi. U tarjimada "domestikatsiya" va "foreignizatsiya" yondashuvlarini batafsil tahlil qilib, milliy unsurlarni asl holicha saqlashning madaniy ahamiyatini ko'rsatib beradi. Shuningdek, M. Baker, A. Lefevre, E. Nida kabi yetakchi tarjimashunos olimlar ham badiiy tarjimada milliy o'ziga xoslikni to'g'ri

berish uchun ekvivalentlik tamoyili, dinamik ekvivalentlik, poetik ta'sir, madaniy moslik va kommunikativ maqsadning uyg'unligini alohida ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, tarjimon nafaqat til birliklarini, balki yashirin konnotatsiyalar, madaniy kodlar, tarixiy asoslar, xalqona obrazlar va urf-odatlarini ham tarjima tilida yangi shaklda qayta yaratishi zarur. Bu jihatlar milliy o'ziga xoslikning tarjimada qayta yaratilishi masalasini tarjima nazariyasining asosiy ilmiy yo'nalishlaridan biriga aylantiradi.

Ko'rib turganimizdek, fransuz-o'zbek yoki o'zbek-fransuz badiiy tarjimalarida milliy koloritni saqlash tarjimonning faqat grammatik yoki leksik bilimiga emas, balki chuqur madaniy kompetensiyasiga, antropologik bilimlariga, tarixiy mantiqni sezish qobiliyatiga ham bevosita bog'liq. Fransuz tarjimonlari milliy koloritning badiiy tarjimada saqlanishiga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, bu masalani nafaqat til birliklari darajasida, balki milliy marosimlar, tarixiy realiyalar, madaniy konnotatsiyalar, xalq urf-odatlari va ma'naviy qadriyatlarning o'quvchiga yetkazilishi orqali ham yondashganlar. J. Vinay va J. Darbelnet taklif qilgan transpozitsiya, ekvivalentlik va kalka metodlari milliy birliklarni tarjima tili kitobxoniga tushunarli, ammo asl ma'nosiga sodiq shaklda yetkazish uchun qo'llanadigan samarali usullardan biridir. Ularning qarashiga ko'ra, tarjimon ba'zan sintaktik struktura yoki leksik shaklni o'zgartirish orqali milliy semantikani saqlagan holda matnni kitobxon uchun tabiiylashtirishi mumkin. Masalan, "Il prit un bain dans la baignoire en cuivre." jumlasini o'zbekchaga "U mis vannasida cho'milgan edi." tarzida tarjima qilinishi transpozitsiya bilan uyg'unlashgan holda milliy realiyani to'g'ri va aniq ifodasini beradi. "Baignoire en cuivre" iborasi o'zbek madaniyatida mavjud bo'lgan tasavvurga mos tushgani uchun tarjimon bu yerda milliylikni saqlagan holda, izohsiz, ammo aniq nomlash orqali ekvivalentlikni ta'minlay olgan.

Yana bir misolda: "U dasturxonga palov tortdi." jumlasini fransuz tiliga "Il servit du riz pilaf, appelé *palov*, sur la table." tarzida izohli ekvivalent yordamida berilgan. Tarjimon "palov" realiyasining fransuz kitobxoniga begona bo'lishi mumkinligini inobatga olib, "riz pilaf" ekvivalenti orqali asosiy tasavvurni shakllantirgan, "appelé palov" orqali esa milliy taomning asl nomini saqlab qolgan. Bu milliy realiyani tanishtirish, tushuntirish va asl madaniy nomni yetkazishning eng muvaffaqiyatli yo'llaridan biridir.

Mashhur fransuz tarjimoni va nazariyotchisi A. Berman tarjimada madaniy unsurlarni haddan tashqari "yumshatish"ni (ya'ni ortiqcha moslashtirishni) "etnosentrik buzilish" deb ataydi. Uning fikriga ko'ra, tarjimada milliylikni imkon qadar asl holicha saqlash lozim, chunki milliy koloritning susayishi asarning badiiy ruhi va muallif ohangini o'quvchiga yetkazishda katta yo'qotishlarga olib keladi. Bermanning tanqidiga ko'ra, tarjimon matnning begonaligini (foreignness) yashirmasligi, balki uni kitobxon ongida madaniy tajriba sifatida qabul qilish uchun imkon yaratishi zarur.

Tarjimada semantik yo'qotishlarning mavjudligini tan olgan G. Mounin esa bunday yo'qotishlarni kompensatsiya metodlari orqali qoplash mumkinligini ta'kidlaydi. Kompensatsiya usullariga izohli tarjima, transliteratsiya, kontekstual kengaytirish, qo'shimcha tavsifiy birliklar qo'shish, yoki madaniy izoh berish kiradi. Masalan, "Kelin salom berdi, mehmonlar uni kutib oldi." jumlasini fransuzchaga "La jeune mariée fit son salut traditionnel, et les invités l'accueillirent chaleureusement." tarzida tarjima qilinishi milliy realiya — "kelin salom"ning izohli shaklda berilishi orqali madaniy kontekstni to'liq yetkazadi. "*Salut traditionnel*" iborasi fransuz kitobxoniga yangi madaniy birlikni tushunish imkoniyatini yaratadi va shu bilan birga o'zbek udumining milliy ruhini ham saqlab qoladi.

Tahlil jarayoniga murojaat qilar ekanmiz, o'zbek tilidagi "salom" realiyasining fransuz kitobxoni uchun *"La jeune mariée fit son salut traditionnel, l'accueillement chaleureusement"* tarzida izohli holda berilishi tarjima amaliyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompensatsiya usulining yorqin namunasidir. Chunki bu yerda oddiygina salomlashish emas, balki o'zbek xalqining marosimiy-milliy udumlariga xos bo'lgan "kelin salom" an'anasi aks etmoqda. Fransuz madaniyatida mazkur udum to'g'ridan-to'g'ri mavjud bo'lmagani sababli, tarjimon semantik yo'qotishni izohli tasvir orqali qoplagan, ya'ni milliy realiyani o'quvchi uchun tushunarli shaklga olib kirgan.

O'tkazilgan tahlillar ushbu ilmiy qarashlarning umumiy mohiyatini quyidagicha ko'rsatadi:

Olim	Yondashuv	Tarjimaga ta'siri
Vinay va Darbelnet	Transpozitsiya, ekvivalent, kalka	Milliy realiyalarni imkon qadar saqlagan holda, tarjima tili o'quvchisi uchun tushunarli qilishga xizmat qiladi
Berman	Etnosentrik buzilishga qarshi yondashuv	Matnning milliy koloritini, madaniy "begonaligini" asl ko'rinishida saqlashni talab qiladi
Mounin	Semantik yo'qotish va kompensatsiya	Yo'qotilgan ma'noni izoh, transliteratsiya, tavsifiy tarjima orqali qoplash zarurligini ta'kidlaydi

Tahlillar tarjimada realiyalarni qayta yaratish nafaqat lisoniy, balki madaniy qaror qabul qilish jarayoni ham ekanligidan dalolat beradi. Har bir milliy birlik ortida xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, urf-odatlarini mujassam bo'lgani uchun tarjimon ushbu birliklarni faqat lug'aviy almashtirish orqali emas, balki madaniy kontekstni to'g'ri anglash va to'g'ri yetkazish orqali ifodalashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, har bir badiiy asar muayyan davr, makon, ijtimoiy-madaniy muhit va milliy xususiyatlar tasviriga bag'ishlangan bo'lganidan tarjimon oldiga o'sha ruhni aslga yaqin tarzda aks ettirish vazifasi qo'yiladi. Agar tarjima jarayonida ushbu talab e'tibordan chetda qolsa va tarjimon faqat iste'mol uchun mo'ljallangan lisoniy lug'atlarga tayanib ish ko'rsa, bunday yondashuv adekvat tarjima yaratish tamoyillariga zid holda matnning zamonaviylashib ketishiga yoki muallif yaratgan milliy bo'yoqning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Shuningdek milliy xususiyatga ega lisoniy vositalarning asossiz ravishda neytral birliklar yoki tarjima tiliga xos vositalar bilan almashtirilishi natijasida matnning milliy asosdan mahrum bo'lishi, ya'ni muallifning badiiy niyatini buzilish xavfi kuchayadi. Demak, badiiy tarjimada milliy o'ziga xoslikni tiklash va qayta yaratish — bu nafaqat lingvistik jarayon, balki madaniyatlararo muloqotning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u tarjimonning madaniy kompetensiyasi, ilmiy saviyasi, badiiy sezgirligi va uslubiy mahoratini talab qiladigan murakkab ijodiy faoliyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Q. Musayev, Tarjima nazariyasi asoslari, darslik, Toshkent, "FAN", 2005.
2. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. London: Prentice Hall, 1988.
3. Venuti, L. *The Translator's Invisibility: A History of Translation*.
4. Baker, M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge, 1992.
5. Fedorov, A. V. *Osnovy obshchey teorii perevoda*. Moskva: Vysshaya Shkola, 1983.

6. Nida, E. *Toward a Science of Translating*. Leiden: Brill, 1964.
7. Berman, A. *The Experience of the Foreign*. Albany: SUNY Press, 1999.
8. Lefevere, A. *Translation, Rewriting and the Manipulation of Literary Fame*. London: Routledge, 1992.